O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI TOYLOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

Toyloq sh., A.Temur ko‘chasi, 22-uy.

2023 - yil 13 - may 108-7-104-Q/23 Toyloq tuman hokimligi

Tumanning “Nurafshon” mahallasi hududida joylashgan 4-umumta’lim maktabi oldida sun’iy yo‘l notekisligini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kungi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlarida hamda “2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘lig‘ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida, mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari-avtomobil yo‘llari infaratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo‘l harakati ishtirokchilarining “piyoda-jamoat transport-velotransport-avtotransport” ustivorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Hududdagi aholining murojaati va Toyloq tumani ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining xati ma’lumot uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. Tumanning “Nurafshon” mahallasi hududida joylashgan 5-umumta’lim maktabi oldidan o‘tuvchi yo‘lda o‘quvchilar xavfsizligini ta’minlash maqsadida

O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti O‘zDSt 3403-2019 talablari asosida ishlab chiqilgan sun’iy notekisliklar, shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kungi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori talablari asosida sun’iy yo‘l notekisligi o‘rnatish tashkil etilsin.

3. Tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (F.Otabekov), tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi (Sh.Odilov), mahalla fuqarolar yig‘ini raislari bilan birgalikda sun’iy yo‘l notekisliklarini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rsin.

4. Mazkur qaror “Qo‘shchinor” gazetasida e’lon qilish hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari (S.Eraliyev), tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi boshlig‘i v.v.b (F.Otabekov) zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Babonazarov**